IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIGA OILAVIY MUHITNING ROLI

Begmatova Nigora
Parkent tumani 5-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog’cha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishiga oilaviy muhitning ro’li dolzarb muammolari yoritilgan. Chaqaloqlik, go‘daklik, ilk bolalik,maktabgacha taibiya yoshidagi bolalarning oilaviy jarayonlari, irodaviy-hissiy xislatlari va psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Shu bilan birga oilada bolalarga qilinadigan munosabatlarning muhim jixatlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Dekvat, simpatiya, xulq-atvor regulyatori, stimulyator, nevroz, psixosteniya demokratik, avtoritarkonformizm, sotsiometrik, apatiya, agressiv.

Kirish. Oila bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo‘g‘inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri benihoya kattadir. Bolaning mustaqilligi nisbiy bo‘lib, u ko‘pjihatdan kattalar qaramog‘i va yordamiga muhtoj bo‘ladi. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo‘ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishning stimulyatori bo‘lib xizmat qiladi. Psixiatrlarning ta’kidlashicha, bolani haddan tashqari qattiqqo‘llik bilan tarbiyalash unda nevrozlarni va psixosteniyani keltirib chiqaruvchi omillardan biridir. Albatta, har bir oiladagi munosabatlar o‘ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-ona va bola munosabatlarining umumiy jihatlari ham mavjuddir. Ota-onalar bolalar xulq-atvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko‘ra o‘rtadagi munosabatlar ko‘pincha “demokratik” va “avtoritar” kabilarga ajratiladi.

Bolalarga oilaviy ta’sir etishning “demokratik” shakli uchun quyidagilar xos: bolaga ko‘p narsaga ruxsat beriladi, bola bilan ko‘p muloqot qilinadi, unga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘linadi, ota-onalar bo‘lar-bo‘lmas ta’qiqlar qo‘ymasikka harakat qiladilar, buning o‘rniga ular bolalarga oiladagi tartib qoidalami tushuntirishga intiladilar, iloji boricha bolalaming savollariga javob berishga, ularning qiziquvchanliklarini qondirishga harakat qiladilar.

Oiladagi “avtoritar” muhit bolalarga nisbatan haddan tashqari ta’qiqlarning ko‘pligi bilan xarakterlanadi. “Hukmron” ota-onalar boladan to‘liq bo‘ysunishini talab qiladilar. Bunday oilalaida bolalarga xulq-atvor qoidalarini tushuntirishga qaratilgan muloqot kamdan-kam o‘tkaziladi. Shu narsa aniqlanganki, “avtoritar” va “demokratik” oilalarda tarbiyalanuvchi bolalaming shaxsiy xususiyatlarida muayyan farq mavjud bo‘ladi. “Demokratik” oilalarning farzandlari ijodkorlikka moyil, tashabbuskor, liderlikka intiluvchan, konformizmni (guruh fikrga tobe bo‘lishni) inkor etuvchi, ijtimoiy munosabatlarida ko‘proq emotsiyalarni his etuvchi bo‘ladilar. Sotsiometrik tajribalardan ma’lum bo‘lishicha oiladagi muhit iliq, ota-ona va bola o’rtasidagi munosabatlar demokratik asosga qurilgan bo‘lsa, bola o‘z tengdoshlarining orasida jamoada yuqori mavqega, aksincha, nosog‘lom oilada tarbiyalanayotgan bolalar ancha past mavqega ega bo‘ladilar. Shu narsa aniqlanganki, bola qanchalik ko‘p erkalitilsa, shaxs sifatida shuncha sekin yetiladi, u passivlik va apatiyaga moyil bo‘ladi, ehtimol, keyinchalik uning xarakteri kuchsiz bo’lib shakllanadi. Oiladagi psixologik iqlim, ya’ni bolalar bilan bo‘lgan muloqot xarakteri, ularga mehr-muhabbat, diqqat-e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi o‘sib kelayotgan inson ahloqiy qiyofasining

shakllanishida o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham barkamol inson tarbiyasi avvalo oiladagi muhitning sog‘lom bo‘lishini taqozo qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning oila a’zolariga bo‘lgan munosabatlari o‘g‘il va qiz bolalarda farqlanadi. Masalan, o‘g‘il bolalar qizlarga nisbatan ko‘proq o‘z jinsidagi oila a’zolari — otasi, akasi, bobosiga o‘zini yaqin tutadi. Oilaning bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni beqiyos ekan, oila a’zolari bolalaming psixik rivojlanishini ta’minlash uchun oilada sog‘lom munosabatlar muhitini yaratishlari lozim, tarbiyachilaming eng asosiy yordamchisiga aylanishlari kerak. Bolaning psixik rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan bo‘ladigan muloqoti ham muhim ahamiyatga egadir. Tengdoshlariga bo‘lgan qiziqish bolada kattalaiga bo‘lgan qiziqishidan biroz keyinroq 1 yoshning oxirlarida paydo bo‘ladi. Biroq u borgan sayin, ayniqsa, bog‘cha yoshi davrida mustahkamlanib boradi. 4-5 yoshli bola uchun eng og‘ir jazo — bu uni o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishdan mahrum etishdir. Bolalar guruhiga tushib qolgan davrdan boshlab bolaning individual rivojlanishini uning “bolalar jamiyati” a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlarini hisobga olmay ko‘rib chiqish va o‘rganish mumkin emas.

YA.L.Kolomunskiy bog‘cha yoshidagi bolalar guruhini odamlar ijtimoiy birligining ilk pog‘onasi, “kurtagi” deb hisoblaydi. Bolalar o‘z tengdoshlari jamoasiga intiladilar. Biroq har doim ham ular tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatishga erishavermaydilar. Ba’zi bolalar guruhda ancha faol bo‘lib, o‘zlarini go‘yo “suvdagi baliqday” his etadilar. Ayrimlari anchagina noqulaylik, o‘zlariga nisbatan ishonchsizlik, boshqalaiga tobelikni his etadilar. Nega shunday? Tengdoshlar bilan bo‘lgan ijobiy munosabatlar bolada birdamlik hissini kuchaytirib, uning guruhga qattiq bog‘lanib qolishiga sabab bo‘ladi. Biroq ijobiy munosabatlari yo‘qligi bolani tushkunlika solib, uni xavotirlanuvchi yoki agressiv qilib qo‘yishi mumkin. Bu esa unda bolalaiga, umuman, odamlarga nisbatan salbiy adekvatli munosabatni shaklantirishi, ulami yolg’izlikka moyil qilib qo‘yishi ham mumkin. Bordi-yu guruhda bolaga faqat bir odam simpatiya (yoqtirish, ijobiy munosabatda bo‘lish) munosabatini bildirsa-chi? Unda nima bo‘ladi? Bunda simpatiya munosabatining bir tomonlama yoki ikki tomonlamaligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar bu munosabat ikki tomonlama bo‘lsa, bola kimgadir ijobiy munosabatda bo‘lsa-yu, ijobiy javob ololmasa bola og‘ir kechinmalami boshdan kechirishi mumkin. Shuning uchun bog‘cha yoshidagi bolalaming o‘zaro munosabatlari ijobiy bo‘lishi lozim. Bolalar munosabatlarining xarakteri va bolalaming guruhidagi mavqeyi nafaqat uning shaxsiy xususiyatlari bilan, ayni vaqtda bolalaiga nisbatan guruhda shakllangan talablar bilan baholanadi. Odatda ko‘pchilik orasida har xil o‘yinlami o‘ylab topa oladigan xushchaqchaq, chiroyli rasmlar chiza oladigan, aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan, mashg‘ulotlarda faol ishtirok etadigan, ancha mustaqil bo‘lgan, saramjon-sarishta bolalar shuxrat qozonadilar. Ko‘p bolali oilalarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa-singilari ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Aka-ukalar va opa-singilar bolaga eng yaqin bo‘lgan mikromuhit tarkibiga kirib, unda markaziy o‘rinni egallaydi. Ba’zi tadqiqotchilar, hatto, oila a’zolarining soni ko‘paygan sari bolalariga ota-onanig ta’siri susayib, aka-ukalar, opa-singilar ta’siri kuchayib boradi, degan fikrini ham bildirganlar. Katta akalari va opalari davrasida bola o ‘zini emotsional himoyalanganday his qiladi. Aka-opalar esa o‘zlarini mehribonlik his-tuyg‘ularini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular o‘rtasida bola o‘zining tashvishlari, qiziqishlari bilan o‘rtoqlashishi mumkin. Akalar-u opalar esa uning ehtiyojlari, jumladan, muloqot ehtiyojini qondirishlari mumkin.

Xulosa. Demak bog‘cha yoshdagi bolalaming boshqa bolalar bilan bo‘lgan ancha murakkab va xilma-xil munosabat turlari shakllanadi va ana shu munosabatlar ma’lum miqdorda uning shaxs sifatida shakllanishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari”. Toshkent-2012
2. “Bolajon” tayanch dasturi. Toshkent-2010
3. E.G’oziyev. “Psixologiya” Darslik. “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2008.
4. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O’quv qo’llanma.Toshkent-Faylasuflar-2013.
5. M.G.Davletshin, Sh.Do’stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To’ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o’quv-metodik qo’llanma) TDPU, T-2004.
6. N.G.Kamilova. Detskaya psixologiya. Uchebnoye posobiye. “Voris-nashriyot” T.-2007.
7. M.Zufarova. “Umumiy Psixologiya”. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.